

KICHIK KORXONALARDA SOLIQ HISOBINI YURITISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari yoritib berilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq qonunchiligi, xususan, Soliq kodeksi hamda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun mo'ljallangan soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan soliq tartiblari tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes subyektlari tomonidan soliq hisobini yuritishdagi asosiy tamoyillar, hisob-kitob usullari, hisobot topshirish tartibi va soliq organlari bilan o'zaro munosabatlar ko'rib chiqilgan. Maqolada nazariy qarashlar bilan bir qatorda amaliy jihatlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari kichik korxonalar uchun soliq yuki va soliq hisobini yuritishdagi huquqiy aniqlikni ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *kichik korxonalar, soliq hisobi, soliq qonunchiligi, huquqiy asoslar, O'zbekiston Soliq kodeksi, soddalashtirilgan soliq tizimi, soliq imtiyozlari, soliq yuki, soliq hisobotlari, tadbirkorlik subyektlari.*

LEGAL FOUNDATIONS OF TAX ACCOUNTING IN SMALL ENTERPRISES

Pulatov Sherzodbek Oybek ugli

*Department of International Tourism and Economics, Kokand University
researcher*

Abstract: This article discusses the legal foundations of tax accounting in small enterprises. The study analyzes the current tax legislation of the Republic of Uzbekistan, particularly the Tax Code, as well as tax benefits and simplified tax regimes designed for small business entities. The main principles of tax accounting, calculation methods, reporting procedures, and interactions with tax authorities for small enterprises are examined. Along with theoretical insights, practical aspects, existing challenges, and solutions are also highlighted. The results provide recommendations aimed at ensuring legal clarity and optimizing the tax burden for small enterprises.

Keywords: *Value-added tax, negative VAT balance, tax reporting, tax administration, working capital, financial liquidity, business entities, tax policy.*

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВЕДЕНИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА В МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Пулатов Шерзодбек Ойбек угли

*Кафедра «Международный туризм и экономика», Кокандский университет
докторант*

Аннотация: В статье рассматриваются правовые основы ведения налогового учета в малых предприятиях. Анализируется действующее налоговое законодательство Республики Узбекистан, в частности Налоговый кодекс, а также налоговые льготы и упрощенные налоговые режимы, предназначенные для субъектов малого бизнеса. Рассматриваются основные принципы налогового учета, методы расчетов, порядок сдачи отчетности и взаимодействие с налоговыми органами. Помимо теоретических аспектов, освещаются практические вопросы, существующие проблемы и пути их решения. Результаты исследования включают рекомендации, направленные на обеспечение юридической ясности и оптимизацию налоговой нагрузки для малых предприятий.

Ключевые слова: *малые предприятия, налоговый учет, налоговое законодательство, правовые основы, Налоговый кодекс Узбекистана, упрощенная налоговая система, налоговые льготы, налоговая нагрузка, налоговая отчетность, субъекты хозяйственной деятельности.*

KIRISH

Kichik korxonalar mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'lagi hisoblanadi va ularning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, kichik biznes subyektlarining faoliyati samarali va qonuniy asosda tashkil etilishi zarur. Soliq hisobini yuritish esa ularning moliyaviy faoliyatini tartibga solishda va davlat soliq siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar uchun maxsus soliq tartiblari va imtiyozlar joriy etilgan bo'lib, bu ularning soliq yukini kamaytirish va biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu bilan birga, soliq hisobining huquqiy asoslarini chuqur tushunish va amaliyotda to'g'ri qo'llash kichik korxonalar faoliyatining qonuniyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari, amaldagi qonunchilik bazasi va soliq organlari bilan o'zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Maqola kichik biznes subyektlarining soliq majburiyatlarini aniq va to'liq bajarishlari uchun zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni taqdim etishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik korxonalarda soliq hisobini yuritish masalalari bo'yicha mavjud adabiyotlarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Turanboyev (2024) o'z ilmiy maqolasida O'zbekistonning amaldagi soliq qonunchiligining kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning nazariy jihatlari tahliliy ravishda o'rganilgan. Muallifning fikricha, yuqori soliq yuki kichik biznesning yashirin iqtisodiyotga o'tish ehtimolini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi kichik tadbirkorlar uchun qulayroq bo'lib, ularni qonuniy faoliyat yuritishini rag'batlantiradi¹degan fikrni ilgari surgan.

Shuningdek, Turotova (2021) Kichik biznes korxonalarida asosiy vositalarni samarali boshqarish va ularni to'g'ri baholash korxonalar faoliyatining moliyaviy holati va rivoji uchun muhimdir deya ta'kidlagan. Unga ko'ra, Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes korxonalarida asosiy vositalarni samarali hisobga olish va amortizatsiyani to'g'ri yuritish ularning moliyaviy hisobotlarini yaxshilashga yordam beradi. Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda zamonaviy buxgalteriya texnologiyalarini joriy etish va amortizatsiyani aniq hisoblash samarali bo'ldi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya dasturlaridan foydalanish kichik biznesning vaqt va resurslarini tejashga imkon beradi va hisobotlarni aniq qilib tayyorlashni ta'minlaydi².

Po'latov (2020) kichik korxonalarda hisob siyosati turlarining tasniflanishini o'rganish, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hisob siyosatining samarali qo'llanilishi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Hisob siyosatini to'g'ri tashkil etish va aniq tasniflash kichik korxonalarda samarali boshqaruvni, xarajatlarni optimallashtirishni va soliq majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydi. Tadqiqotda, kichik korxonalarda hisob siyosati turli usullar, metodlar va tizimlarga asoslanishi mumkinligi, shuningdek, kichik bizneslarning alohida ehtiyojlariga moslashtirilishi zarurligi ta'kidlangan³.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar uchun soliq hisobini yuritish bo'yicha huquqiy asoslar sohasida qator o'rganilgan masalalar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda uchraydigan muammolar va qonunchilikning yangilanishi talab etadigan masalalar ham ko'p. Shu bois, ushbu mavzuda dolzarb muammolarni yechish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi zarur.

1 Turanboyev, B. (2024). Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning nazariy jihatlari. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 13, 26–29. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1015>

2 Turotova, N. ,& Zulfiqorov, N.(2024). Kichik biznes korxonalarida asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish. *Technical Science Research in Uzbekistan*, 2(10), 9–16. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60574>

³Po'latov, S. (2025). Kichik korxonalarda hisob siyosati turlarining tasniflanishi. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 14, 57–60. <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1123>

METODOLOGIYA

Maqolada kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslarini o'rganishda huquqiy hujjatlar tahlili, nazariy va amaliy tadqiqotlar usullari qo'llanildi. Amaldagi qonunchilik bazasi, soliq kodeksi va normativ hujjatlar o'rganilib, soliq hisobini yuritishdagi asosiy tamoyillar aniqlandi. Shuningdek, kichik korxonalar faoliyatidagi real holatlar va soliq organlari talablarining ta'siri tahlil qilindi. Ushbu metodlar maqola mavzusini tizimli yoritishga imkon berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq qonunchiligi bilan belgilanadi va bu sohada bir qator muhim tamoyillar mavjud. Soliq kodeksi kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq rejimlarini va imtiyozlarni nazarda tutadi, bu esa soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Kichik korxonalarda soliq hisobini takomillashtirishga huquqiy asos bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi asosiy huquqiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Kichik korxonalarda soliq hisobini takomillashtirishda hozirgi kunda amaliyotda quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

- Qonunchilikning tez-tez o'zgarishi kichik korxonalar uchun soliq hisobini yuritishda qiyinchiliklar tug'diradi, chunki yangi talablar va normativlar haqida yetarli darajada xabardorlik yetishmaydi;

- Soliq hisobining murakkabligi va maxsus bilim talab qilishi kichik tadbirkorlarda hisobotlarni to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etishda muammolar paydo bo'lishiga olib keladi;

- Soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi ba'zan noto'g'ri talqin va noaniqliklarga sabab bo'ladi, bu esa soliq jazo choralarga olib kelishi mumkin;

- Soddalashtirilgan soliq tizimi va imtiyozlar bo'yicha qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarning yetarlicha tushuntirilmasligi kichik korxonalar uchun imkoniyatlardan samarali foydalanishni cheklaydi.

Kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslarini o'rganishda avvalo O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar batafsil tahlil qilindi. Ushbu hujjatlar kichik biznes subyektlari uchun maxsus soliq tartib-taomillari va imtiyozlarni belgilaydi, bu esa ularning moliyaviy yukini yengillashtirish hamda iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil jarayonida soddalashtirilgan soliq tizimi va soliq imtiyozlari kichik korxonalarining soliq hisobini yuritishda asosiy vositalar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, soliq qonunchiligining barqarorligi va qonunlardagi o'zgarishlarni soliq

to'lovchilarga yetkazish mexanizmlari kichik tadbirkorlar uchun muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatildi.

Amaliyotda, tahlillar soliq qonunchiligidagi murakkabliklar va soliq organlari bilan o'zaro munosabatdagi qiyinchiliklarning kichik korxonalar uchun jiddiy to'siqlar yaratishini ko'rsatdi. Kichik tadbirkorlarning huquqiy bilimlari yetarli emasligi, soliq hisobotlarini noto'g'ri yoki kechikkan taqdim etish holatlari ko'p uchraydi. Bu esa, o'z navbatida, soliq jarimalari va boshqa moliyaviy oqibatlarga olib keladi.

Shuningdek, komparativ tahlillar orqali boshqa mamlakatlarda kichik biznes uchun yaratilgan soliq hisobining qulay va tushunarli tizimlari o'rganilib, ularning O'zbekistonga moslashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlari aniqlangan.

Tahlillar natijasida quyidagi asosiy natijalar olinishiga erishildi:

- Huquqiy asoslarning mavjudligi va samaradorligi ya'ni bu orqali O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi kichik korxonalar uchun soliq hisobini yuritishda yetarli huquqiy asoslarni yaratgan, biroq qonunchilikda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni amaliyotga tez va samarali joriy etish borasida muammolar mavjud. Soddalashtirilgan soliq rejimi va imtiyozlar kichik korxonalar uchun soliq yukini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

- Amaliy muammolar shundaki kichik tadbirkorlarning soliq hisoboti va hisobotlarini yuritishda huquqiy bilimlari yetarli emasligi, soliq organlari bilan muloqotdagi qiyinchiliklar va texnik imkoniyatlarning cheklanganligi soliq hisobining to'g'ri yuritilishiga to'sqinlik qiladi. Takliflar esa soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash, kichik korxonalar uchun huquqiy yordam ko'rsatish, soliq organlari tomonidan tushuntirish ishlarini kuchaytirish va elektron soliq hisoboti tizimlarini rivojlantirish kichik korxonalar uchun soliq hisobini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari mustahkamlangan taqdirda, bu kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxonalar umumiy korxonalar sonining taxminan 85% ini tashkil etadi va mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 25-30% qismiga hissa qo'shadi. Bu kichik biznes sektorining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi⁴. Kichik korxonalar jami soliq to'lovchilarining taxminan 60% ini tashkil qiladi, biroq ularning to'lovdagi ulushi umumiy soliq tushumlarining atigi 15-20% ga teng⁵.

Bu kichik biznes subyektlarining soliq yukining nisbatan pastligini va soliq imtiyozlaridan foydalanishini ifodalaydi. Kichik korxonalarining 70% dan ortig'i soddalashtirilgan soliq rejimidan foydalanadi, bu ularning soliq hisobini yuritishda

⁴ Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, & Musabekov Sherali Nazarali o'g'li. (2023). The study of value-added tax: knowledge from the eu vat experience and uzbekistan's vat system. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 9(9), 131–135. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.853>

⁵ www.imv.uz

huquqiy asoslarning soddaligi va qulayligini tanlaganliklarini ko'rsatadi. Soddalashtirilgan soliq rejimini tanlashning asosiy shartlari amaldagi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida o'z aksini topgan⁶.

So'nggi 5 yil davomida kichik korxonalar taalluqli soliq qonunchiligida taxminan 12 ta asosiy o'zgartirish va yangilanishlar amalga oshirilgan. Bu qonunchilikning tez-tez o'zgarishi kichik tadbirkorlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar yaratadi. Hozirda kichik korxonalarining deyarli barchasi soliq hisobini yuritishda zamonaviy elektron tizimlardan faol foydalanmoqda. Elektron tizimlar joriy etilishi soliq hisobini yuritishda aniqlik va tezlikni oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq kodeksi korxonalarda soliq hisobini yuritish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi Soliq kodeksining 7-bobi soliq hisobiga bag'ishlanadi⁷.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi kichik korxonalar uchun soliq hisobini yuritishda huquqiy asoslarni shakllantirgan bo'lib, soliq yukini kamaytirish va soliq tartib-taomillarini soddalashtirishga qaratilgan bir qator imtiyozlarni nazarda tutadi. Kichik korxonalar faoliyatida soddalashtirilgan soliq rejimi va soliq imtiyozlaridan keng foydalanilmoqda, bu esa ularning soliq majburiyatlarini samarali bajarishiga yordam bermoqda.

Amaliyotda soliq qonunchiligidagi tez-tez o'zgarishlar va soliq organlari talablarining murakkabligi kichik tadbirkorlar uchun soliq hisobini to'g'ri yuritishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bu holatlar soliq hisobotlarining kechikishi va xatoliklar yuzaga kelishiga olib keladi.

Kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlar huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlash, soliq organlari tomonidan tushuntirish ishlarini kuchaytirish hamda elektron hisob-kitob tizimlarini rivojlantirish zarur. Elektron soliq hisobot tizimlarining joriy etilishi kichik korxonalar soliq hisobini yuritishda samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi, biroq bu tizimlardan to'liq foydalanish darajasi hali past⁸.

Ushbu natijalar kichik biznes subyektlarining soliq hisobini yuritish sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Ilmiy tadqiqot ishi orqali bir necha xulosa va takliflar ilgari suriladi. Kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi konstitutsiya talablariga zid bo'lmasligi zarur⁹.

⁶ www.soliq.uz

⁷ O'RQ-599 sonli qonun O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi

⁸ www.lex.uz

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 yil

XULOSA

Ushbu maqolada kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslari tahlil qilindi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi soliq qonunchiligi asosida bu jarayonning mohiyati, xususiyatlari hamda muhim tamoyillari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes subyektlari uchun maxsus mo'ljallangan soddalashtirilgan soliq tizimi va soliq imtiyozlari kichik korxonalarining faoliyatini rag'batlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu mexanizmlar kichik biznes subyektlarining soliq yukini yengillashtirib, ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq, amaliyotda uchrayotgan qator muammolar mavjudligi aniqlangan. Jumladan, soliq qonunchiligining tez-tez o'zgarishi, soliq organlari talablarining murakkabligi va kichik tadbirkorlarning soliq hisobiga oid huquqiy bilimlarining yetishmasligi soliq hisobini yuritishda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Bu holatlar soliq hisoboti va soliq to'lovlarini to'g'ri bajarishga to'sqinlik qilmoqda hamda ayrim hollarda soliq nazorati choralari qo'llanishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishni yanada samarali qilish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish muhim hisoblanadi: birinchidan, soliq qonunchiligida barqarorlikni ta'minlash, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'zgarishlari haqida kichik tadbirkorlarni muntazam xabardor qilish; ikkinchidan, soliq organlari tomonidan kichik korxonalariga huquqiy maslahatlar va treninglar o'tkazish orqali ularning bilim darajasini oshirish; uchinchidan, soliq hisobini yuritishni soddalashtirish maqsadida zamonaviy elektron tizimlarni keng joriy etish.

Shuningdek, soliq hisobining huquqiy asoslarini mustahkamlash kichik korxonalar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash va natijada iqtisodiyotning ushbu sektorida barqaror o'sish jarayonini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik korxonalarda soliq hisobini yuritishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda amalga oshiriladigan islohotlar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, soliq qonunchiligi va uning amaliyoti doimiy ravishda tahlil qilinib, kichik korxonalarining ehtiyojlari va zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turanboyev, B. (2024). Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning nazariy jihatlarini. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 26–29. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1015>

2. Turopova, N. & Zulfiqorov, N. (2024). Kichik biznes korxonalarida asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish. *Technical Science Research in Uzbekistan*, 2(10), 9–16. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60574>

3. Po'latov, S. (2025). Kichik korxonalarda hisob siyosati turlarining tasniflanishi. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 14, 57–60. <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1123>

4. Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, & Musabekov Sherali Nazarali o'g'li. (2023). The study of value-added tax: knowledge from the eu vat experience and uzbekistan's vat system. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 9(9), 131–135. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.853>

5. www.imv.uz

6. www.soliq.uz

7. O'RQ-599 sonli qonun O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi.

8. www.lex.uz

9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 yil.